

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.17/7.06.2024.K/T.06.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

XAMROYEV UTKIR NAMOZOVICH

**PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING
ALGORITMLASHGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xamroyev Utkir Namozovich

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....3

Хамроев Уткир Намозович

Совершенствование методики развития компетентности студентов высших педагогических образовательных учреждений по алгоритмизации.....21

Khamroev Utkir Namozovich

Improving the methodology for developing algorithmic competence of students of pedagogical universities.....39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works43

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.17/7.06.2024.K/T.06.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

XAMROYEV UTKIR NAMOZOVICH

**PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING
ALGORITMLASHGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Ped3198 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nsumt.uz) ba «ZiyoNET» axborot portali (www.ziynet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirsanov Uralboy Muxammadiyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

O'tapov Toyir Usmonovich
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi DSc.17/7.06.2024.K/T.06.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 11-dekabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 210100, Navoiy shahri, G'alaba shoh ko'chasi, 76v-uy. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining majlislar zali. Tel.: 79 (436) 223-23-32; faks: 0 (436) 223-49-66 (e-mail: info@nsumt.uz).

Dissertatsiya bilan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 241) raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 210100, Navoiy shahri, G'alaba shoh ko'chasi, 76v-uy. ko'chasi, Tel.: 0 (436) 223-23-32; faks: 0 (436) 223-49-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 27 noyabr kuni tarqatildi.

(2025 yil «27» noyabrdagi 20 raqamli reyestr bayonnomasi).



B.F. Muxiddinov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, k.f.d., professor

S.Sh. Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

S.J. Bazarova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
bi-martalik Ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda oliy ta'lim muassasalarida algoritmlash va dasturlash tillarini o'qitish samaradorligini oshirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarda, virtual muhittlardan, bulutli xizmatlardan, asinxron va sinxron o'qitish tizimlaridan, sun'iy intellektli axborot-ta'lim muhitlaridan foydalanib o'qitish masalalariga doir tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ta'lim oluvchilarning saralash, qidiruv, rekursiv, Rabin-Karp algoritmlarga va ular asosida zamonaviy dasturlash tillari muhitida murakkab loyihalar ishlab chiqishga doir ijodiy qobiliyatini oshirish, mantiqiy, kognitiv fikrlashini va kompetentligini rivojlantirish hamda ta'lim jarayonini tizimlashtirishni nazariy-metodologik yondashuvini va uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Dunyo miqyosida bo'lajak axborot texnologiyalari mutaxassislarini tayyorlashda masalalarni hamda turli amaliy dasturlarni algoritmlash va loyihalashni o'rgatishning zamonaviy yondashuvlarini tadbqiq etish va ta'lim oluvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning evristik texnologiyalarini kvalimetrik jihatlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish hamda ularni kognitiv fikrlashini rivojlantirishni innovatsion modellarini loyihalashning didaktik tamoyillarini aniqlashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tadqiqot natijalari bo'lajak axborot texnologiyalari mutaxassislarini algoritmik fikrlashini rivojlantirishda LMS (Learning management system) tizimlaridan va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan (blended learning, flipped classroom, veb-kvest) foydalanishga doir ilmiy-nazariy ishlanmalar samaradorligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni, shu jumladan bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarning algoritmlashga oid kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishni zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish bilan pedagog kadrlarni tayyorlashda, axborot texnologiyalari vositalarini va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zaro integratsiyalash orqali o'qitishning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish imkoniyatlari yaratilmoqda. O'z navbatida pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zarurati paydo bo'lmoqda. Bu borada Xalq ta'lim va oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "bir million dasturchi loyihasini keng hududda joriy qilish; xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash"¹ kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda talabalarning algoritmlashga oid mantiqiy, kreativ, kognitiv fikrlashini va kompetentligini rivojlantirishda semantik, muammoli, interaktiv yondashuvlar va virtual muhittlardan foydalanish hamda talabalarning mustaqil o'quv faoliyatida algoritmlashga o'rgatish metodikasini virtual muhitlar yordamida takomillashtirish tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli, 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli, 2020-yil 6-oktabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851-sonli qarorlari hamda boshqa huquqiy-meyoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotining natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Oliy ta’lim muassasalarida informatika va axborot texnologiyalariga oid fanlarni o‘qitish metodikasi, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarning tayyorlash nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha tadqiqotlar mamlakatimizda: A.A.Abduqodirov, F.M.Zakirova, M.H.Lutfillayev, N.I.Taylaqov, D.M.Maxmudovalar tomonidan olib borgan; oliy ta’lim muassasalarida dasturlash tillarini o‘qitish metodikasiga doir ilmiy izlanishlar U.M.Mirsanov, N.A.Otaxonov, M.R.Fayziyeva, D.R.Ro‘ziyevlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan; talabalarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirish metodikasiga bag‘ishlangan tadqiqot F.J.Toxirov tomonidan amalga oshirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida informatika fanlarini o‘qitish muammolari, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlash metodologiyasiga oid tadqiqot ishlari: R.M.Magomedov, L.M.Ivkina, G.A.Baydraxmanovalar tomonidan amalga oshirilgan; dasturlash tillarini o‘qitish muammolari, talabalarning dasturlashga oid kompetentligini rivojlantirish mexanizmlariga oid izlanishlar I.V.Bajenova, Y.N.Nilova, D.G.Jemchujnikov, U.S.Munayev, I.V.Bajenovalar tomonidan amalga oshirilgan; talabalarning algoritmlashga oid mantiqiy, kreativ fikrlashini rivojlantirish va kompetentligini rivojlantirish metodikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar V.V.Kalitina, V.V.Popova, A.S.Lagoxa kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorij davlatlarida axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitish samaradorligini mexanizmlari, web-texnologiyalardan foydalanish muammolari, informatika fanlarini o‘qitishda gibril ta’limdan foydalanish nazariyasi va amaliyoti, talabalarni axborot texnologiyalariga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda onlayn ta’limdan foydalanish mexanizmlariga doir izlanishlar Benjamin Clément, L.F.Adriana, Andrija Bernik, Adriano Del Pino Linolar tomonidan tadqiq etilgan; dasturlash tillarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi, o‘quvchi-talabalarning dasturlashga oid mantiqiy va algoritmik fikrlashini rivojlantirish texnologiyalariga oid tadqiqotlar Monika Mladenović, Lennart Rolandsson, Arwa Abdulaziz Allinjawi, Anthemis Raptopoulou, Luís Filipe Leite Barbosalar tomonidan tadqiq etilgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash nazariyasi va amaliyoti, dasturlash tillarini o'qitish muammolari, talabalarni dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirish metodikasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari bo'lib, biroq pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish metodikasi ilmiy-amaliy jihatdan to'raligicha o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya ishi bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Navoiy davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining XJ/-01 "O'quv kurslarini boshqarish uchun ma'lumotlar ba'zasini yaratish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarining algoritmlashga oid mantiqiy, kreativ, kognitiv fikrlashini va kompetentligini rivojlantirish bosqichlari va tayyorgarlik darajalarini aniqlashtirish;

talabalarining sonli-tahlili, proyektiv-rekursiv algoritmlashga doir mantiqiy, kreativ fikrlashini rivojlantirish va algoritmlash mantiqiga moslashtirish, aqliy faoliyatining o'tish jarayonini uslubiy tuzilmasini takomillashtirish;

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida algoritmlashga oid fanlardan mashg'ulotlarini o'quv-tashkiliy tuzilmasini va bosqichlarini takomillashtirish;

talabalarining algoritmlashga oid fanlardan mustaqil ta'limni takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti: pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov Qo'qon davlat pedagogika instituti, Nukus davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat pedagogika institutidan 746 nafar talaba ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmeti: pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish mazmuni, shakli, metod va vositalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari: tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-uslubiy manbalarni qiyosiy tahlil etish, pedagogika oliy ta'lim muassasalari Davlat ta'lim standartlarini, malaka talablarini, o'quv-reja va namunaviy dasturlarni o'rganish, anketa-so'rov, suhbat, kuzatish hamda tajriba-sinov ishlarida olingan natijalarni matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarining algoritmlashga oid mantiqiy, kreativ, kognitiv fikrlashini va kompetentligini rivojlantirish intellektual faoliyat bosqichlari va tayyorgarlik darajalari semantik, muammoli, interaktiv yondashuv hamda virtual muhitlar asosida aniqlashtirilgan;

talabalarining sonli-tahlil, proyektiv-rekursiv algoritmlashga doir mantiqiy, kreativ fikrlashini rivojlantirish va algoritmlash mantiqiga moslashtirish, aqliy faoliyatining o'tish jarayonini uslubiy tuzilmasi muammoli ta'lim texnologiyalari, metodik ta'minotli dasturiy vositalar, ochiq axborot ta'lim muhitlar asosida takomillashtirilgan;

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida algoritmlashga oid fanlardan mashg'ulotlarini o'quv-tashkiliy tuzilmasini, tashkil etish bosqichlari didaktik ta'minotli muhitlarni innovatsion faoliyatga, saralash, qidiruv, rekursiv, rabin-Karp masalalarga moslash orqali talabalarda o'z-o'zini shakllantirish kompetentligini amaliy yo'naltirilgan didaktik omillari tizimli-faollik va semantik yondashuvlar yordamida takomillashtirilgan;

algoritmlashga oid fanlardan mustaqil ta'lim jarayonlariga oid o'quv-metodik ta'minot, dasturiy vositalar, semantik va matnli o'quv topshiriqlari hamda virtual muhitlarni didaktik imkoniyatlari mazmunini ochib berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Talabalarning algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirishga mo'ljallangan axborot-ta'lim muhiti ishlab chiqilgan;

“Talabalarning algoritm va dasturlashga oid intellektual qobiliyatini rivojlantirishga”, “Talabalarning saralash algoritmgiga oid kompetentligini rivojlantirishga”, “Oliy ta'lim muassasalari talabalarning intellektual qobiliyat darajasini aniqlash va algoritmik kompetentlikni rivojlantirishga”, talabalarning algoritmlashga oid mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etishga” mo'ljallangan elektron qo'llanmalar ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining 16102, 16723, 26003, 33291-raqamli guvohnomalari);

Talabalarning algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish modeli, algoritmlashga doir mashg'ulotlarni tashkil etish tuzilmasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, ilmiy-uslubiy jurnallarda, Oliy attestatsiyasi komissiyasi ro'yxatidagi jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan o'quv qo'llanma, intellektual mulk agentligidan olingan guvohnoma, o'tkazilgan savol-javob, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarning algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish modeli, algoritmlashga doir mashg'ulotlarni tashkil etish tuzilmasi va ochiq axborot-ta'lim muhiti joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, talabalarning algoritmlashga oid kompetentligini fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi raqamli ta'lim vositalar, onlayn muhitlar, muammoli, veb-kvest ta'lim texnologiyalarini amaliyotga tadbiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

talabalarning algoritmlashga oid mantiqiy, kreativ, kognitiv fikrlashini va kompetentligini rivojlantirish intellektual faoliyat bosqichlari va tayyorgarlik darajalari semantik, muammoli, interaktiv yondashuvlar, virtual muhitlar asosida

aniqlashtirishga oid takliflar “Algoritmlash asoslari” nomli darslikning mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 07-maydagi 149-son buyrug‘i, 925681-raqamli guvohnomasi). Natijada, talabalarning algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirishga erishilgan;

talabalarning sonli-tahlili, proyektiv-rekursiv algoritmlashga doir mantiqiy, kreativ fikrlashini rivojlantirish va algoritmlash mantig‘iga moslashtirish, aqliy faoliyatining o‘tish jarayonini uslubiy tuzilmasi muammoli ta’lim texnologiyalari, metodik ta’minotli dasturiy vositalar, ochiq axborot ta’lim muhitlar asosida takomillashtirishga oid takliflar “Python dasturlash tili” nomli darslikning mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 281-son buyrug‘i, 281-9 raqamli guvohnomasi). Natijada, algoritmlashga oid fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirishga erishilgan;

pedagogika oliy ta’lim muassasalarida algoritmlashga oid fanlardan mashg‘ulotlarini o‘quv-tashkiliy tuzilmasi, tashkil etish bosqichlari didaktik ta’minotli muhitlarni innovatsion faoliyatga, saralash, qidiruv, rekursiv, rabin-Karp masalalarga moslash orqali talabalarda o‘z-o‘zini shakllantirish kompetentligini amaliy yo‘naltirilgan didaktik omillari tizimli-faollik va semantik yondashuvlarga ko‘ra takomillashtirishga oid takliflar “Алгоритмы и структуры данных” nomli darslikning mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 711-U-son buyrug‘i, 711-14-raqamli guvohnomasi). Natijada, algoritmlashga oid fanlarni tashkil etish tuzilmasini takomillashtirishga erishilgan.

algoritmlashga oid fanlardan mustaqil ta’lim jarayonlariga oid o‘quv-metodik ta’minot dasturiy vositalar, semantik va matnli o‘quv topshiriqlari hamda virtual muhitlarni didaktik imkoniyatlari mazmunini ochib berish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Algoritmlash asoslari” fanidan laboratoriya ishlari nomli o‘quv qo‘llanmaning mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 136-son buyrug‘i, 149238-raqamli guvohnomasi). Natijada, talabalarning algoritmlashga oid fanlardan mustaqil ta’limini takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Mazkur tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari 3 ta respublika, 6 ta xalqaro forum va ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 33 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, 7 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug‘i asosida 3 ta darslik, 3 ta o‘quv qo‘llanma chop etilgan, 7 ta dasturiy vositaga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligining mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 152 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi **“Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari”** nomli bobida talabalarining algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish muammolari, pedagogik shartlari va texnologiyalarni didaktik imkoniyatlariga oid tahliliy ma'lumotlar keltirilgan.

Dasturlash texnologiyasining o'rgatishda algoritmlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki axborot texnologiyalari mutaxassislarining kasbiy faoliyati shaxsiy kompyuterning keng imkoniyatlaridan foydalanish, algoritmlarni kompilyatsiya qilish, birlashtirish va amalga oshirish hamda dasturiy mahsulotlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Bunda berilgan masalani algoritmini ishlab chiqilgandan so'ng, istalgan dasturlash tili dastur kodiga o'tkazish qiyinchilik tug'dirmaydi. Shuningdek, algoritmlashni o'rgatish orqali axborot modellashtirish mohiyatini, o'rganilayotgan jarayonlarni tahlil qilish va qaror qabul qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish qobiliyatini singdirishga imkon beradi. Shuning uchun talabalarining algoritmlash va dasturlashga oid ijodiy qobiliyatini oshirish, kreativ fikrlashini va kompetentligini rivojlantirish muhim masalalardan biri sanaladi.

Bu borada, ya'ni talabalarining algoritmlashga oid mantiqiy, kreativ, kognitiv fikrlashini va kompetentligini rivojlantirishga oid tadqiqotlar S.G.Grigorev, V.V.Kalitina, T.N.Lebedev, I.N.Slinkina, I.V.Gavrilova, algoritmlashga oid fanlarni o'qitish metodikasiga doir U.M.Mirsanov, M.R.Fayziyeva, O.P.Yurkovets, talabalarining algoritmlashga oid fanlardan mustaqil ta'limini tashkil etishda raqamli o'quv vositlardan foydalanish nazariyasi va amaliyotiga bag'ishlangan tadqiqotlar F.J.Toxirov, D.R.Ro'ziyeva, Luís Filipe Leite Barbosalar tomonidan tadqiq etilgan.

Ushbu olimlarni ishlarida uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-talabalarining algoritmlashga oid mantiqiy, kreativ va kognitiv fikrlashini rivojlantirish hamad dasturlash tillarini o'qitish metodikasiga qaratilgan bo'lib, biroq pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ilmiy-nazariy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu bois, ilgari surilayotgan tadqiqot, ya'ni talabalarining algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Mazkur muammolarni o'rganishga doir ilmiy adabiyotlarning nazariy tahliliga ko'ra, ayni paytda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud:

fanni mazmunida algoritmlashga oid mavzular va soatlar miqdori yetarlicha emasligi; professor-o'qituvchi tomonidan algoritmlashga oid beriladigan masalalar soddaligi; algoritmlashni o'rgatishga mo'ljallangan didaktik ta'minot pedagogik, psixologik, psixofiziologi talablarga to'liq javob bermasligi; talabalarning motivatsiyasini va qiziqishini oshirishga oid metodikada ba'zi bir muammolar mavjudligi; masalalarni algoritmini dastur kodiga o'tkazishni to'laligicha tushunib yetmasligi; talabalarning mustaqil o'quv faoliyatida algoritmlashni o'rgatishga oid metodikani takomillashtirish zarurati mavjudligi.

Ushbu muammolarni yechish uchun dastlab Talabalarning algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirishni pedagogik shartlarini aniqlashtirishni taqozo etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak informatika o'qituvchilarning tayyorlashda algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish muhim masalalardan biri sanaladi. Chunki algoritmlashni yaxshi o'zlashtirgan talaba dasturlash tillari yordamida turli ilovalarni, dasturiy mahsulotlarni samarali loyihalashga ega bo'ladi. Shu munosabat bilan talabalarning algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Buning uchun talabalarning algoritmlashga o'rgatish va ularning algoritmlashga oid motivatsiyasini oshirish, kreativ va kognitiv fikrlashini hamda kompetentligini rivojlantirishni pedagogik shartlarini aniqlashtirish, agar lozim bo'lsa takomillashtirish maqsadga muvofiq sanaladi. Shuning uchun ilgari surilgan tadqiqotda talabalarning algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shartlari aniqlashtirildi: 1) talabalarga algoritmlashni o'rgatishda muammoli va veb-kvest ta'lim texnologiyalaridan foydalanish; 2) talabalarga algoritmlashni o'rgatishda pedagogik dasturiy vositalardan samarali foydalanish; 3) algoritmlashga oid beriladigan masalalar murakkab bo'lishi; 4) virtual muhitlarda masofaviy jamoa bo'lib masalalarni algoritmlashga oid madaniyatini oshirish; 5) talabalarning ishlab chiqilgan algoritmlarni zamonaviy dasturlash tillarini kodlariga o'tkazishga oid ijodiy qobiliyatini oshirish.

Taklif etilayotgan pedagogik shartlarga amal qilishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Bunda quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi: talabani algoritmlashga o'rgatishda tabaqalashtirilgan ta'limga va elektron ta'lim resurslarining individual imkoniyatlaridan foydalanishga moslashtirish; axborot (turli shakllarda o'quv ma'lumotlar; amaliy faoliyatda bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonlarini tashkil etish; tarmoq imkoniyatlaridan foydalanish asosida algoritmlashni mustaqil ravishda o'zlashtirish); interaktiv (talaba va raqamli vositalar asosida mavjudligi interfaol muloqotni amalga oshirishni belgilaydigan tezkor qayta aloqaning ta'lim resurslari, bu har bir talabaning so'rovi tizimdan javob berishi va aksincha, ikkinchisining javobi talabaning reaksiyasini talab qilishidan iborat); evristik (intellektual faoliyatni tashkil etish); talabani kommunikativ muammolarni hal qilish; algoritmlashga oid topshirilgan muammolarni hal qilish uchun gipotezalar va loyihalarni qurish; talabalarning algoritmlashga oid bilim faolligini faollashtirish; algoritmlashga oid fikrlashning ayrim turlarini shakllantirish va rivojlantirish; semiotik (haqiqiy obyektlarning tasvirlar – modellar bilan almashtirishda hodisalar va obyektlarning etimologik qiyofasini modellarida kuzatish, fazoviy shakllarning an'anaviy tasviri, tovush tili; obyektlarni multimedia vizualizatsiya qilish imkoniyatlarini amalga oshirish va


dastur bilan dialog aloqasi imkoniyatlarini saqlab qolgan holda ularni vaqtinchalik va fazoviy rivojlanishda aks ettiruvchi hodisalar, o'quvchilar uchun elektron ta'lim resurslarining fan sohalarini uchun qulaylik; tizimlashtirish (algoritmashga oid olingan ma'lumotlarni umumlashtirish); algoritmashga oid o'quv materialini tizimlashtirilgan va tuzilgan shaklda taqdim etish, turli xil vizualizatsiya turlarining kombinatsiyasi, axborotni taqdim etish shakli va uning mazmuni o'rtasidagi optimal munosabatni ta'minlash.

Bu kabi imkoniyatlarni hisobga olgan holda tadqiqot dorasida Web 2.0 xizmatlarga asoslangan global tarmoqning www.algoritm-edu.uz manzilida axborot-ta'lim muhiti ishlab chiqildi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan www.algoritm-edu.uz axborot-ta'lim muhitining imkoniyatlari quyidagicha: qulay bo'lgan joyda va vaqtda ochiq foydalanishga mo'ljallanganligi. Ishlab chiqilgan axborot-ta'lim muhitidan misol va masalalarni algoritmashga o'rgatishga mo'ljallangan o'quv vositalardan ochiq foydalanishga qaratilgan. Bunda talabalar algoritmashni individual layoqatlariga qarab o'zlashtiradilar. Natijada, ta'lim erkin va moslashuvchan usulda o'tib, talabalar berilgan vazifalarni o'ziga qulay tartibda bajarishi mumkin; mustaqil ta'lim olish tizimini takomillashtirish. Talabalar interaktiv elektron ta'lim resurslar asosida misol va masalalarni algoritmashni mustaqil o'rganish, shuningdek, ba'zi bir sabablarga ko'ra mashg'ulotlarga qatnasha olmagan mavzularni o'zlashtirishga erishiladi. Bu ayniqsa imkoniyati cheklangan talabalarining algoritmashga o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi; algoritmashga oid manbalarni yuklab olish imkoniyati mavjudligi. Axborot-ta'lim muhitiga algoritmashga doir joylashtirilgan elektron ta'lim resurslarni yuklab olish imkoniyati mavjudligi; talabalar uchun algoritmashga oid o'quv vositalar va topshiriqlar to'plami mavjudligi; talabalarining algoritmashga doir bilimlarni sinab ko'rish uchun onlayn tizim mavjudligi; talabalarni mantiqiy, kreativ, kognitiv fikrlashini rivojlantirishga mo'ljallangan turli topshiriqlar mavjudligi; murakkab algoritmashga oid muammoli topshiriqlar to'plami mavjudligi; teskari aloqa tizimi mavjudligi.

Shunday qilib, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan axborot-ta'lim muhiti oliy ta'lim muassasalari talabalarining algoritmashga doir motivatsiyasini oshirishga, mantiqiy va kreativ fikrlashini rivojlantirishga hamda kompetentligini shakllantirishga va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi **“Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining algoritmashga oid kompetentligini rivojlantirish metodikasi”** bobida pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining algoritmashga oid kompetentligini rivojlantirish mazmuni, modeli va mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi hamda talabalarining algoritmashga oid kompetentligini rivojlantirishda mustaqil ta'limdan foydalanish metodikasi takomillashtirildi.

Algoritmik kompetentlik talabalarga texnologiyaning jamiyat va madaniyatga ta'sirini tushunishga yordam beradi hamda tanqidiy fikrlash, muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu nafaqat axborot texnologiyalarida, balki hayotning boshqa ko'plab sohalarida ham dolzarb sanaladi. Shuning uchun tadqiqot doirasida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining dasturlashga oid algoritmik kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).




1-rasm. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish modeli

Model tashkiliy va texnologik, amaliy, nazorat va tahlil bosqichlaridan iborat. Tashkiliy va texnologik bosqichda talabalarning algoritmlashga oid auditoriya va mustaqil ta'lim faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish taklif etilgan. Amaliy bosqichda talabalarning algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish g'oyasi taklif etilgan. Nazorat va tahlil bosqichida talabalarning algoritmlashga oid kompetentligini baholash mezonlari va darajalari keltirilgan.

Ushbu taklif etilgan model asosida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida algoritmlash va dasturlashga oid fanlarning o'qitish metodikasi (ma'ruza, amaliy, laboratoriya) takomillashtirildi. Bunda axborot-ta'lim muhitlari va muammoli ta'lim texnologiyasini integratsiyalash asosida ma'ruza mashg'ulotlarni to'rt bosqichda tashkil etish metodikasi ishlab chiqildi.

Oliy ta'lim muassasalarida algoritmlash va dasturlash tillariga oid olib borilgan ma'ruza mashg'ulotlari bilan birgalikda amaliy mashg'ulotlar nazariyani amaliyot bilan bog'lash funksiyalarini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Algoritmlash va dasturlash tillariga oid fanlardan amaliy mashg'ulotlarining ma'ruzadan farqlanadigan asosiy belgilaridan biri ishtirokchilarni birgalikdagi o'quv maqsadlariga erishish harakatlarida ko'zga tashlanadi. Shu bois, tadqiqot doirasida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida algoritmlash va dasturlash tillariga oid fanlardan amaliy mashg'ulotlar tashkil etish tuzilmasi ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).




2-rasm. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish tuzilmasi

Tavsiya etilgan tuzilma nafaqat algoritmlashga bo'lgan qiziqishni oshiradi, balki talabalarning kompetentligini rivojlantiradi va ularda analitik fikrlash, muammolarni yechish va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish qobiliyatlarini shakllantiradi. Bu jarayon, talabalarning professional o'sishini ta'minlaydi va ularga kelajakda raqobatbardosh mutaxassis bo'lishlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni beradi.

Algoritmlash va dasturlash tillariga oid yangi yondashuvlarni joriy etishda ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar bilan birgalikda laboratoriya ishlarini tashkil etishga

alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki algoritmlash va dasturlash tillaridan olib borilgan laboratoriya mashg'ulotlari yordamida talabalarning mustaqil ravishda masalalarni dasturlashga va turli ilovalar hamda obyektlarni boshqaruvchi tizimlarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishga erishiladi. Shu maqsadda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida algoritmlash va dasturlash tillariga oid fanlardan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish tuzilmasi ishlab chiqildi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Algoritmlash va dasturlashga oid fanlardan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish tuzilmasi

Ushbu tuzilmada kichik guruhlarda jamoa bo'lib algoritmlashni o'rganish jarayoni ko'zda tutilgan. Bu jarayon talabalarni birgalikda ishlashga, o'zaro fikr almashishga va muammolarni birgalikda hal qilishga undaydi. Laboratoriya

mashg'ulotlarida talabalar, birinchi navbatda, algoritmash asoslari, algoritmarni yaratish va tahlil qilish jarayonlarini o'rganadilar. Ular turli xil masalalar va misollar asosida amaliy tajribaga ega bo'lishadi. Bunda algoritmashga oid dasturlardan, masalan, Flowgorithm dasturidan foydalanish ko'zda tutilgan, bu esa talabalar uchun algoritmarni vizual tarzda ifodalash imkonini beradi. Mashg'ulotlar davomida talabalar o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini namoyish etishlari va yangi yechimlar ishlab chiqishlari uchun o'zaro hamkorlik qilishadi. Har bir jamoa o'z algoritmini ishlab chiqib, taqdimot qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ularda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, professor-o'qituvchilar laboratoriya mashg'ulotlari davomida talabalar faoliyatini kuzatib borishadi, ularga zarur maslahatlar berishadi va natijalarga baho berish orqali talabalarning bilimlarini mustahkamlashga hissa qo'shadilar. Taklif etilayotgan tuzilma orqali, talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirib, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar, bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, algoritmash va dasturlashga oid fanlardan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda tavsiya etilayotgan tuzilmadan foydalanish orqali talabalarning misol va masalalarni algoritmashga oid motivatsiyasini oshirishga, muloqat ko'nikmalarini, fikrlashini va kompetentligini rivojlantirishga erishiladi.

Shuningdek, mazkur bobda talabalarning algoritmash va dasturlash tillariga oid fanlardan mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasi takomillashtirildi. Bunda talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda dasturlashga oid virtual platformalardan, shu jumladan Lucidchart platformasidan foydalanish tavsiya etiladi. Tavsiya etilayotgan bulutli platforma foydalanish qulayligi, jamoaviy hamkorlik uchun turli funksiyalarga ega ekanligi bilan samarali hisoblanadi.

Izlanishlarimiz asosida shuni guvohi bo'ldikki, talabalarga jamoa bo'lib misol va masalalarni algoritmashni o'rgatishda Lucidchart bulutli platformasidan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Ushbu platformadan foydalanish algoritmash, dasturlash yoki muhandislik loyihalari uchun hamkorlikda blok-sxemalarni ishlab chiqishda, mashg'ulotlarning bir qismi sifatida algoritmarni guruh muhokamasiga qo'yish va vizualizatsiyasi qilishda, talabalar ishini o'zaro ko'rib chiqish, loyihani yakuniy topshirilishidan oldin xatolarni aniqlash va tuzatishda samarali hisoblanadi. Shuning uchun pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalariga algoritmashni o'rgatishda Lucidchart bulutli platformasidan foydalanishni tavsiya etamiz.

“Pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularni samaradorligi” nomli uchinchi bobida tadqiqot doirasida ilgari surilayotgan metodikaning samaradorlik darajasini aniqlashga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari keltirilgan. Tajriba-sinov ishlari 2020-2024 o'quv yillarida Qo'qon davlat pedagogika instituti, Nukus davlat pedagogika instituti va Navoiy davlat pedagogika institutida olib borildi. Ushbu oliy ta'lim muassasalarida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish uchun 746 nafar bo'lajak matematika va informatika hamda informatika o'qituvchilari jalb etilib, ular tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi (Tajriba guruhiga 375 nafar, nazorat guruhiga esa 371 nafar).

Pedagogik tajriba-sinov ishlari to'rt bosqichda, ya'ni tashxis va bashorat qilish, tashkiliy-tayyorgarlik, amaliy va umumlashtiruvchi bosqichlarda olib borildi.

